

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumot)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2062,1 ming so‘mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga oshdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Korxonalar va tashkilotlar soni
101,2 %



Xodimlar soni
99,7 %

Ish haqi fondi
84,2 %




O‘rtacha ish haqi
113,7 %

Ma’lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati – 16,3 % ga, ta'lim sohasi - 8,9 % ga, bank, sug'urta va vositachilik faoliyati - 48,7 % ga, axborot va aloqa sohasi - 10,2 % ga viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2020 yil yanvar-sentabr oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2019-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa bank, sug'urta faoliyatida - 5070,3 ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – 2688,9 ming so'mni tashkil etdi.


Sanoat




Qurilish




Tashish va saqlash




Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish






“Ta’lim” sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1755,4 ming so‘mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,9% ga oshgan.



Viloyatdagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona shahri - **132,1** %, Qo‘qon shahri - **114,5** %, Bog‘dod tumani – **108,6** % va O‘zbekiston tumani – **103,1** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




Shu bilan birga, 15 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar So'x tumani - **98,9 %**, Marg'ilon shahri - **98,7 %**, Oltiariq tumani - **96,2 %**, Dang'ara tumani - **89,5 %**, hissasiga to'g'ri kelgan.



“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatida o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Beshariq tumani – **107,2 %**, Qo‘qon shahri – **104,3 %**, Dang‘ara tumani - **138,9 %**, Farg‘ona shahri– **107,5 %**, hissasiga to‘g‘ri kelgan.

O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m

Shu bilan birga, viloytaning 8 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloytida darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlari Yozyovon tumani - **88,8 %** Marg‘ilon shahri - **59,1 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.






“Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Marg‘ilon shahri - **133,4 %** va Farg‘ona shahri - **105,6 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 5 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Uchko'prik tumani - **71,7** %, Qo'qon shahri - **86,2** %, Bog'dod tumani - **85,4** %, Toshloq tumani - **77,9** % hamda Quva tumani - **58,9** % hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Sanoat sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatida o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Bog‘dod tumani - **116,9 %**, Farg‘ona shahri - **112,6 %** va Marg‘ilon shahri – **118,1 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.



Shu bilan birga, viloyatining 8 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Qo'qon shahri - **89,4 %**, Qo'shtepa tumani – **86,5 %**, Toshloq tumani – **86,4 %**, O'zbekiston tumani - **65,5 %**, Quvasoy shahri – **90,1 %**, Beshariq tumani – **66,3 %** hamda Quva tumani - **66,1 %** hissasiga to'g'ri keldi.






“Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Furqat tumani - **122,3** %, Quva tumani - **116,4** %, Farg‘ona shahri - **116,8** %, Qo‘shtepa tumani - **113,8** %, Marg‘ilon shahri - **108,4** % hamda Oltiariq tumani - **104,2** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatining 6 ta hududida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahri – **95,5** %, Bog‘dod tumani - **93,2** %, Buvayda tumani - **91,8** %, O‘zbekiston tumani - **85,9** %, Dang‘ara tumani – **89,3** % hamda Farg‘ona tumani - **77,9** %, hissasiga to‘g‘ri kelgan.



O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m






“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahrida - **104,7 %** va Toshloq tumani - **110,5 %** kuzatildi.



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 3 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyatida ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichida Farg'ona shahrida - **93,4 %**, Yozyovon tumani - **74,8 %** hamda Rishton tumani - **68,6 %** kuzatildi.






“Moliya va sug'urta” faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari , ming so'm.
(so'm)


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich %, Quvasoy shahrida – **126,1 %** va Qo'qon shahrida – **123,1 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 16 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Quva tumani - **83,0 %**, Uchko'prik tumani – **78,3 %**, Toshloq tumani- **39,7 %** hamda Dang'ara tumani – **49,9 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2020 - yilning yanvar-sentabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug'urta faoliyatida 48,7 % ga, tashish va saqlashda 22,5 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 16,3 % ga, qurilishda 94,5 % san'at, ko'ngil ochish va dam olishda 24,1 % ga, sanoatda 93,4 % ga, ta'lim sohasida 8,9 % ga, savdoda 93,4 % ga, axborot va aloqada 10,2 % ga o'sganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida 2742,2 ming so'mni, Qo'qon shahrida 2243,1 ming so'mni, Quvasoy shahrida 2100,6 ming so'mni va Marg'ilon shahrida 1885,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida 1583,0 ming so'mni, Farg'ona tumanida 1488,3 ming so'mni, tashkil etgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar-sentabr 2019- yil	yanvar-sentabr 2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1814,2	2062,0	113,7
Farg'ona	2296,0	2742,2	119,4
Qo'qon	1987,9	2243,1	112,8
Quvasoy	1948,4	2100,6	107,8
Marg'ilon	1733,0	1885,6	108,8
Oltiariq	1543,4	1619,9	105,0
Qo'shtepa	1484,0	1788,1	120,5
Bog'dod	1625,1	1907,0	117,3
Buvayda	1418,4	1511,9	106,6
Beshariq	1368,6	1485,2	108,5
Quva	1477,7	1730,0	117,1
Uchko'prik	1541,4	1745,7	113,3
Rishton	1485,3	1721,7	115,9
So'x	1561,3	1755,5	112,4
Toshloq	1808,3	1921,9	106,3
O'zbekiston	1600,4	1709,9	106,8
Farg'ona	1382,7	1488,2	107,6
Dang'ara	1496,2	1583,0	105,8
Furqat	1640,2	1842,0	112,3
Yozyovon	1778,8	1881,9	105,8

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-13